



## KAMBAG‘ALLIK DARAJASINI PASAYTIRISHDA AYOLLAR BANDLIGINI OSHIRISH TAJRIBASINING TAHLILI

**Janabayeva Gulbahor Ashirovna**

*Oriental universiteti Moliya va menejment kafedrası stajyor o‘qituvchisi*

[gulbahorjanabaeva@gmail.com](mailto:gulbahorjanabaeva@gmail.com)

Kambag‘allikni kamaytirish bugungi kunda nafaqat ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlash, balki iqtisodiy rivojlanishning ham muhim sharti hisoblanadi. Jamiyatda kambag‘allik darajasini pasaytirishda turli yo‘nalishlar qo‘llanilsa-da, ulardan eng samarali usullardan biri ayollar bandligini oshirish tajribasidir. Chunki ayollar mehnat bozoridagi faol ishtiroki nafaqat oilaviy daromadni ko‘paytiradi, balki ijtimoiy tenglik va gender adolatini mustahkamlashga ham xizmat qiladi.

Shu nuqtai nazardan, ayollar bandligini ta‘minlash orqali kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha ilg‘or tajribalarni o‘rganish, ularning afzalliklari va muammolarini tahlil qilish alohida ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Bunday yondashuv mamlakatimizda olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar bilan hamohang bo‘lib, barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda muhim mexanizm sifatida ko‘riladi.

Kambag‘allik darajasini kamaytirishga qaratilgan strategik maqsadlarga erishish jarayonini doimiy monitoring qilish va aniq ko‘rsatkichlar asosida baholash zamonaviy boshqaruvning ajralmas qismidir. Bunday monitoringni sifatli tashkil etish uchun xalqaro tashkilotlar tomonidan belgilangan yondashuvlarga amal qilish zarur.

Shu nuqtai nazardan, BMT Yevropa Iqtisodiy Komissiyasi qoshida faoliyat yuritayotgan Kambag‘allikni o‘lchash bo‘yicha Maqsadli Guruh (Task Force on Poverty Measurement) tomonidan davlatlar oldiga bir qator metodologik talablar qo‘yilgan. Jumladan, quyidagi choralar muhim ahamiyatga ega:

### 1. Mavjud baholash usullarini takomillashtirish

Har bir davlat o‘zining kambag‘allikni aniqlash mezonlari, chegaralari va indikatorlarini muntazam ravishda takomillashtirib borishi zarur.

Shu bilan birga, subyektiv va obyektiv kambag‘allikni ajratish, uy xo‘jaligi darajasida ham, individual darajada ham holatni tahlil qilish imkonini beradigan statistik yondashuvlar tatbiq etilishi lozim.

### 2. Xalqaro darajada taqqoslanadigan ko‘rsatkichlar tizimini ishlab chiqish

Davlat ichidagi tahlillar xalqaro tajriba bilan solishtirilishi uchun universal, birlashtirilgan va taqqoslanadigan indikatorlar bazasini shakllantirish zarur.


Shu qatorda, barqaror rivojlanish maqsadlari (SDG - Sustainable Development Goals) bo‘yicha 1-maqsad - “Kambag‘allikning barcha shakllarini butunlay yo‘q qilish” bo‘yicha ishlab chiqilgan ko‘rsatkichlar har bir mamlakatda milliy sharoitga moslashtirilgan bo‘lishi kerak. “BMT Bosh Assambleyasining 2017-yil 6-iyuldagi

rezolyutsiyasida ta'kidlanganidek, dunyo hamjamiyati oldida turgan eng muhim va dolzarb vazifalardan biri - bu kambag'allikni barcha shakl va ko'rinishlarida, jumladan, o'ta kambag'allikni tubdan bartaraf etish hisoblanadi.

Bu nafaqat inson huquqlari, ijtimoiy adolat va iqtisodiy barqarorlik uchun muhim, balki barqaror rivojlanishning zaruriy asosiy sharti sifatida e'tirof etilgan. Kambag'allikni yo'q qilish yo'lida erishilgan natijalarni samarali baholash uchun sifatli, ochiq, yangilanib turuvchi va ishonchli statistik ma'lumotlar, ayniqsa, aholining jins, yosh, hudud, nogironlik darajasi, ijtimoiy maqomi kabi tavsiflarga asoslangan tarkibiy tahlil etilgan (razukrupnyonny) ma'lumotlar talab etiladi"<sup>3</sup>.

Shu munosabat bilan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan qabul qilingan Barqaror rivojlanish maqsadlari (BRM) tizimi doirasidagi ko'rsatkichlar va metodologik tavsiyalar asosida, har bir davlat o'zining milliy ustuvor yo'nalishlari va ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarini hisobga olgan holda ma'lumotlar bazasini shakllantirish va yangilab borishga qaratilgan milliy dasturlarini ishlab chiqishi va amaliyotga joriy etishi lozim.

Bu jarayon - nafaqat xalqaro hisobot va monitoring tizimlarida ishtirok etish uchun muhim, balki ichki siyosiy qarorlar qabul qilishda, ijtimoiy adolatni ta'minlashda va kambag'allikni kamaytirish bo'yicha samarali va maqsadli siyosatlar ishlab chiqishda ham asosiy vosita hisoblanadi. Zero, kambag'allik nafaqat iqtisodiy resurslar yetishmasligi, balki imkoniyatlar, huquqlar va xizmatlardan to'la foydalanish imkoniyati yo'qligini ham o'z ichiga oladi.




**1 - rasm. Ayollarni kuchaytirish orqali kambag'allik darajasini kamaytirishning institutsional jarayoni<sup>4</sup>**

<sup>3</sup> Генеральная Ассамблея ООН. Резолюция от 6.07.2017 № 71/313 «Работа Статистической комиссии, связанная с деятельностью по осуществлению Повестки дня в области устойчивого развития на период до 2030 года». [Электронный ресурс]. - URL: <https://undocs.org/ru/A/RES/71/313>.

<sup>4</sup> Muallif ishlanamsi

Ayollarni kuchaytirish va kambag'allikni kamaytirish darajasi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik ikki yo'nalishda kechadigan dinamik jarayon sifatida namoyon bo'ladi. Ayollarning iqtisodiy imkoniyatlar va qaror qabul qilishdagi huquqlar bilan ta'minlanishi ularni faol va mustaqil ijtimoiy-iqtisodiy subyektga aylantiradi. Bu esa uy xo'jaligi darajasida kambag'allikni kamaytirishga sezilarli hissa qo'shadi. Kuchli ayollar orqali shakllanadigan ijtimoiy - iqtisodiy ta'sir oilaviy farovonlikni ta'minlashda muhim omil sifatida qaraladi.

Shu bilan birga, kambag'allikning qisqarishi empowerment jarayonini yanada kuchaytiradi, ya'ni bu ikki holat o'zaro mustahkamlovchi, qayta bog'lanishga asoslangan tizimda harakatlanadi. Natijada, ayollarni kuchaytirish faqat individual darajadagi o'zgarish emas, balki makroiqtisodiy barqarorlik, gender tengligi va ijtimoiy adolatni ta'minlovchi strategik mexanizm sifatida e'tirof etiladi.



## 2 - rasm Sun'iy intellekt muhandisligi sohasida gender tafovutlari global ko'lam va tarmoq yo'nalishlari tahlili<sup>5</sup>

Ushbu rasmda 2016 - 2023 yillar oralig'ida texnologiya, ta'lim, professional xizmatlar, moliyaviy xizmatlar, ishlab chiqarish va global ko'rsatkichlar bo'yicha ayollarning ulushi yoki ishtiroki dinamikasi aks ettirilgan. Texnologiya, axborot va ommaviy axborot vositalari sohasida eng yuqori o'sish kuzatilgan bo'lib, bu soha gender tengligi borasidagi yutuqlarning eng faol namunasidir. Ta'lim va professional xizmatlar ham ayollar uchun nisbatan ochiq va barqaror sohaligini ko'rsatmoqda.

<sup>5</sup> World Economic Forum – Global Gender Gap Report 2023 ma'lumotlari asosida tadqiqotchi tomonidan tayyorlandi

Moliyaviy xizmatlar hamda ishlab chiqarish tarmoqlari esa, ayollar ishtirokini oshirish bo'yicha sekinroq sur'atlarda rivojlanmoqda.

Yuqoridagi tahlillar asosida asosiy xulosalar ishlab chiqildi va aniq natijalarga erishildi. Bu natijalar kambag'allikni kamaytirish va ayollar bandligini ta'minlash bo'yicha samarali mexanizmlarni belgilashga xizmat qiladi.

Ayollar bandligini oshirish kambag'allik darajasini kamaytirishda hal qiluvchi omillardan biridir. Ularning mehnat bozoridagi faolligi nafaqat oilaviy daromadlarni ko'paytiradi, balki jamiyatda ijtimoiy barqarorlik va gender tengligini mustahkamlaydi. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, ayollarning iqtisodiy hayotga kengroq jalb etilishi mamlakatlarning barqaror rivojlanish ko'rsatkichlarini sezilarli darajada oshiradi.

Shu bois, milliy sharoitda ayollar bandligini qo'llab-quvvatlash va ularni iqtisodiy imkoniyatlar bilan ta'minlash dolzarb vazifadir. Bunday yondashuv ijtimoiy adolatni ta'minlash, kambag'allikni kamaytirish va iqtisodiy o'sishni jadallashtirishga xizmat qiladi. Natijada, ayollarning faolligi mamlakatimizning uzoq muddatli taraqqiyotida strategik ustunlikka aylanadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Генеральная Ассамблея ООН. Резолюция от 6.07.2017 № 71/313 «Работа Статистической комиссии, связанная с деятельностью по осуществлению Повестки дня в области устойчивого развития на период до 2030 года». [Электронный ресурс]. - URL: <https://undocs.org/ru/A/RES/71/313>.
2. Kolesnikova, O. A., & Pokhvoshev, V. A. (2015). Development of women's entrepreneurship as a factor of effective employment. MIR (Modernization. Innovation. Research), 1(21), 103–107.
3. World Bank. (2021). Uzbekistan overview. World Bank. <https://www.worldbank.org/en/country/uzbekistan/overview>
4. United Nations Development Programme (UNDP). (2022). Gender equality and women's empowerment: Progress and challenges. UNDP. <https://www.undp.org>
5. Begimova, D. K. (2020). Ayollar tadbirkorligini rivojlantirishning iqtisodiy va ijtimoiy jihatlari. Iqtisodiyot va ta'lim, 5(2), 45–52.
6. Raxmonov, Sh. T. (2021). Ayollar bandligini ta'minlash va kambag'allikni kamaytirishda kichik biznesning roli. O'zbekiston iqtisodiy axborotnomasi, 3(4), 112–119.